

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

| | |
|---|-------|
| <i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА | 10-15 |
| <i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI | 16-20 |
| <i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ | 21-27 |
| <i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА | 28-33 |
| <i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIIY YANGILANISH | 34-38 |
| <i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ | 39-45 |
| <i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI | 46-52 |
| <i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR)..... | 53-57 |
| <i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR | 58-62 |
| <i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIIY YUKSALISH UYG'UNLIGI | 63-70 |
| <i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI | 71-79 |
| <i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI | 80-85 |
| <i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI | 86-90 |

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

| | |
|--|---------|
| <i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025) | 91-100 |
| <i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI | 101-107 |
| <i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI | 108-113 |
| <i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI | 114-118 |
| <i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI | 119-135 |
| <i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI | 136-140 |
| <i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL | 141-154 |

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

| | |
|--|---------|
| <i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR..... | 155-165 |
| <i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOIIY ADOLATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI | 166-175 |
| <i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR | 176-181 |
| <i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA'SIRI..... | 182-188 |
| <i>Xolova Umida Umedovna</i> "O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI" | 189-192 |
| <i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE" | 193-197 |
| <i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI..... | 198-202 |
| <i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI.. | 203-210 |

Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB
TALQINLARI..... 211-215

Rustamova Madina
OMMAVIY MANIPULYATSIIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING
TRANSFORMATSIIYASI..... 221-225

10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI 226-232

Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL 233-241

Quvvatova Shaxlo Choriyevna
XOLID HUSAYNIYNING "MING QUYOSH SHU'LASI" ASARI TAHLILI..... 242-246

Elmuratova Zamira Xodjamuratovna
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich
QONUNIIY KUCHGA KIRMGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

Umarova Xolisxon Nomoz qizi
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK
UCHUN JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

Аминова Наргиза
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ 270-277

Amirov Agzamxon Aktamovich
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

Kabilov Sardor Asrolovich
JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI 295-300

| | |
|--|---------|
| <i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH | 301-304 |
| <i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ | 305-310 |
| <i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI | 311-318 |
| <i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI | 319-325 |
| <i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L..... | 326-331 |
| 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI | |
| <i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH | 332-337 |
| <i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION | 338-344 |
| <i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOYIY ASOSLARI | 345-354 |
| <i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI..... | 355-360 |
| <i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE..... | 361-367 |

Received: 16 March 2026

Accepted: 01 April 2026

Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

ANALYSIS OF KHALID HUSAINI'S "A THOUSAND SUNRISES"

Quvvatova Shakhlo Chorievna

Bukhara State University

III stage basic doctoral student

E-mail: kuvvatova.shaxlo@gmail.com

Abstract. This article provides an in-depth literary analysis of Khaled Hosseini's novel *A Thousand Splendid Suns*. It explores the fate of Afghan women in the context of war, political upheaval, and patriarchal oppression. Through the characters of Mariam and Laylo, the novel conveys themes of sacrifice, love, resistance, and human dignity. The article examines the novel's plot, character development, stylistic features, and historical background, highlighting its literary and social significance. This work is intended for students, literary scholars, and readers interested in contemporary world literature and gender studies.

Keywords: Khaled Hosseini, *A Thousand Splendid Suns*, Afghan literature, women's fate, war literature, patriarchal society, character analysis, contemporary fiction, sacrifice, female resilience.

XOLID HUSAYNIYNING "MING QUYOSH SHU'LASI" ASARI TAHLILI

Quvvatova Shaxlo Choriyevna

Buxoro davlat universiteti

III bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xolid Husayniyning "Ming quyosh shu'lasini" asari chuqur adabiy tahlil qilinadi. Asarda tasvirlangan Afg'oniston ayollarining og'ir taqdiri, urush va siyosiy to'qnashuvlarning inson ruhiyatiga ta'siri, ayollarning jasorati va mehribonligi asosiy tahlil nuqtasiga aylangan. Maqolada Maryam va Laylo obrazlari orqali patriarxal jamiyatdagi ayollar holati, fidoyilik va insoniylik g'oyalari yoritiladi. Shuningdek, roman syujeti, badiiy uslubi, tarixiy konteksti hamda uni adabiy va ijtimoiy hodisa sifatida o'rganish imkoniyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Xolid Husayniy, "Ming quyosh shu'lasini", Afg'on adabiyoti, ayollar taqdiri, urush adabiyoti, patriarxal jamiyat, obrazlar tahlili, badiiy roman, jasorat, mehr va fidoyilik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N34>

Xolid Husayniy mashhur yozuvchilardan biri bo'lib Afg'oniston zaminida tug'ilib Amerika diyorida yashayotgan ijodkor hisoblanadi. Uning badiiy asarlari, asosan, insonlar yengib o'tishi kerak bo'lgan qiyinchiliklarni, millatning sabr-bardoshi, jasorati hamda sadoqatini shuningdek, urushning yomon tomonlari va uning salbiy oqibatlarini namoyon etadi. Bundan tashqari, u har doim insonlarni ta'lim olishga, qaram bo'lmaslikka, o'z fikrlarini erkin bayon qilishga chaqirishga harakat qilgan. Asarlarining mazmun-mohiyati va dolzarbligi tufayli ular dunyo bo'ylab xaridorgirligi bilan ajralib turadi. Haqiqatdan ham, "Ming quyosh shu'lasini" romani — afg'on ayollari hayoti timsolida ularni oilalaridan ayiruvchi urush balosini tasvirlovchi asar. O'zining badiiy mahorati, ramzlarni to'g'ri usulda qo'llay olishi orqali afg'on-amerikalik yozuvchi Xolid Husayniy ushbu romanda Afg'onistonning ayanchi holatini ko'rsatib beradi [4]. Birinchi o'rinda biz ramz ya'ni timsollar haqida qisqacha bilimga ega bo'lishimiz

kerak. Bu badiiy vosita ijodkor tomonidan foydalanilgan element bo'lib, u kitobxonga matnni chuqur anglashi uchun turli xil ishlatiladi.

Zamonaviy adabiyotda inson taqdirini urushlar, siyosiy to'qnashuvlar va ijtimoiy notinchliklar fonida ochib berish orqali chuqur mazmun berish ko'plab yozuvchilar ijodining bosh mezoniga aylangan. Amerikalik afg'on yozuvchisi Xolid Husayniy ham o'zining "Ming quyosh shu'lasi" nomli romanida aynan shunday yondashuvdan foydalangan. Ushbu asar Afg'oniston tarixidagi fojiali davrlarni, urushlar va siyosiy notinchliklarning oddiy insonlar, ayniqsa ayollar hayotiga qanday ta'sir qilganini chuqur tahlil etadi [1]. Ming Quyosh Shu'lasi romani Afg'onistonning so'nggi bir necha o'n yilliklar davomida boshidan kechirgan og'ir sinovlari, jumladan, Sovet-Afg'on urushi, fuqarolar urushi va Tolibonning hokimiyat tepasiga kelishi kabi tarixiy voqealar fonida ikki ayol – Laila va Mariyamning taqdirini qamrab oladi. Xolid Husayniy urush va siyosiy keskinliklar oddiy insonlar hayotiga, ularning oilaviy munosabatlariga, shaxsiy orzu-umidlariga qanday dahshatli zarba berishini o'z asarida mahorat bilan tasvirlaydi. Ayollarning jamiyatdagi o'rnini, ularga nisbatan qo'llaniladigan adolatsizliklar, zulm va zo'ravonliklar romanda asosiy mavzulardan biri sifatida ko'tariladi. Laila va Mariyamning boshidan kechirganlari, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati va fidoyiligi og'ir sharoitda ham insoniy qadriyatlarining saqlanib qolish mumkinligini ko'rsatib beradi.

Asarda urush va siyosiy beqarorlikning ta'siri nafaqat ayollar, balki erkaklar va bolalar hayotida ham o'z aksini topgan. Hokimiyat uchun kurashlar, xalqning tinch va osoyishta hayotidan ajralishi, ko'chalarda hukm surayotgan vahima va qo'rquv muhiti tasviridan ko'rinib turadi. Xolid Husayniy o'z qahramonlari orqali urushning inson ruhiyatiga, ularning kelajakka bo'lgan ishonchiga qanday salbiy ta'sir qilishini ochib beradi. Biroq, shunga qaramay, umid va mehr tuyg'ulari yo'qolmaydi. Qahramonlarning irodasi, qiyinchiliklarga qarshi kurashi va bir-biriga madad bo'lishga intilishi asarga chuqur insonparvarlik mohiyatini bag'ishlaydi. "Ming Quyosh Shu'lasi" zamonaviy adabiyotda ijtimoiy va siyosiy voqelikni inson taqdiri bilan bog'lab tahlil qilishning yorqin namunasidir. Romanda ko'tarilgan muammolar, ya'ni urushning oqibatlari, ayollarga nisbatan zo'ravonlik, murosasizlik kabi mavzular nafaqat Afg'oniston, balki dunyoning ko'plab mintaqalarida dolzarb hisoblanadi. Xolid Husayniy asari orqali o'quvchini voqelikka chuqurroq nazar tashlashga, urushning azob-uqubatlarini tasavvur qilishga va insoniylik qadriyatlarini qadrlashga undaydi. Bu esa asarning nafaqat badiiy, balki ijtimoiy ahamiyatini ham belgilab beradi.

Ushbu asarda insoniylik, mehr, jasorat, erk uchun kurash kabi abadiy g'oyalar o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, asardagi ikki bosh qahramon — Maryam va Layloning fojiali, ammo shonli taqdirleri roman g'oyasining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Maqola davomida romanning syujeti, obrazlar tizimi, asosiy g'oyalari, badiiy xususiyatlari va tarixiy konteksti chuqur tahlil qilinadi. Asarning mazmuni hamda syujeti ikki ayol va bir taqdir haqida ekanligini asarni o'qish davomida anglab olishimiz qiyin emas. Roman ikki qismdan iborat, ya'ni birinchi qismda Maryam, ikkinchi qismda Layloning taqdiri yoritiladi. Asarda syujet to'qnashuvi Maryam va Layloning taqdiriy kesishmasi orqali yuzaga chiqadi. Ularning har biri o'z sharoitida o'sib-ulg'ayadi. Maryam — haromi farzand, jamiyatda inkor qilingan shaxs, Laylo esa zamonaviylik va ta'limni qadrllovchi oilada voyaga yetgan. Ammo Afg'onistondagi urush va to'qnashuvlar natijasida ularning hayot yo'llari kesishadi — har ikkalasi bir erkakka turmushga

chiqadi. Bu yerda yozuvchi ayollar hayotining umumiyligini ko'rsatadi, ya'ni sinfiy farqlarga qaramay, patriarxal jamiyatda har bir ayol jabrdiyda sifatida tasvirlangan [2].

Maryam — hayoti davomida muhabbat va e'tirof izlagan ayol. Laylo esa mehr bilan ulg'aygan, ammo hayot uni sabrga va kurashga chorlaydi. Bu ikki ayol o'rtasidagi munosabat esa avval raqobatdan, keyin esa onalik va singillik mehriga aylanadi [3]. Har ikkala obrazlarni tahlil qilar ekanmiz, asarda ular mehr va jasorat timsollari sifatida keltirilganligiga yana bir bor amin bo'lamiz [4].

Bundan tashqari, Maryam fidoyilik va sabr timsoli sifatida ham gavdalanadi. Maryam jamiyat tomonidan rad etilgan, otasi tomonidan tan olinmagan, onasi tomonidan kamsitilgan qizdir. Uning butun hayoti davomida izlagani — muhabbat va qadrlanishdir. U hayotida biror marta ham shodlikni to'liq his qilmagan. Biroq Layloni va uning farzandlarini asrash orqali o'zini inson sifatida kashf qiladi. Bu — Maryamning insoniy kamolotga yetganining dalilidir [5].

Laylo esa o'zgaruvchan jamiyatda o'zligini saqlab qolgan ayol sifatida tasvirlanadi. Laylo — Afg'oniston ayollarining yangi avlodi timsoli [6]. U zamonaviy fikrlaydi, ta'limli, ma'rifatli, ma'naviyatli, bir olam orzulari bor qiz. Urush uning orzularini vayron qilsa-da, u ruhan sinmaydi. Farzandlari uchun kurashadi, jamiyatdagi zulmga qarshi ichki norozilik bilan yashaydi. Tolibon davridagi qattiq tartiblar uning hayotini doimiy nazorat ostida tutadi, ammo u o'z shaxsiyatini saqlab qolishga harakat qiladi [7].

Rashid — asarda hukmronlik va zo'ravonlik timsoliga yaqqol misol bo'la oladi. U o'ziga to'q, ammo aqliy jihatdan zaiflashgan, qadriyatlarini tushunmaydigan erkak. U Maryam va Layloni faqat o'z ehtiyojini qondirish vositasi deb biladi. Rashid orqali muallif Afg'oniston jamiyatidagi erkaklarning hukmronlik va zo'ravonlik xususiyatlarini fosh qiladi. Ayniqsa, ayollarga bo'lgan munosabatda u faqat kuch orqali muloqot qiladi [8].

Bunday olib qaraganda roman asosan ayollarning qahramonligi va kurashi haqida. Afg'on jamiyatida ayollar taqdiriga chizilgan cheklovlar, diniy va madaniy parda ortida yashiringan erkaklarning zo'ravonlarcha hukmronligi — asarning bosh mavzusi. Maryam va Laylo esa bu zulmga qarshi turishadi. Ular kurashadi — so'z bilan emas, balki yashab, sabr qilib, mehr berib kurashadi. Maryam Layloning hayotini asrash uchun o'z hayotini qurbon qiladi. Bu fidoyilik — insoniy buyuklikning namunasi [9]. Layloning kelajakda ta'lim sohasida ishlashi — umid timsolidir. Asar yakunida Layloning Kobulga qaytishi — hayotning davomiyligi, xalqning barhayotligi va ayolning qayta tiklanishi g'oyasini ifodalaydi. Ming Quyosh Shu'lasini asari chinakamiga ayollarning ruhiy kuch-qudrati, ularning fidokorligi va zulmga qarshi kurashdagi chidamliligi haqida hikoya qiladi. Romanda tasvirlangan Afg'on jamiyatida ayollarga qo'yilgan cheklovlar, erkaklar hukmronligi ostida ularning ojiz ahvolga tushishi va hatto o'z hayotlarining egasi bo'la olmasligi kabi vaziyatlar diqqatga sazovordir. Maryam va Laila bu qiyinchiliklarga ojizona emas, balki ichki kuch va sabr-toqat bilan qarshi turadilar. Ularning kurashi nafaqat zo'ravonlikka, balki umidsizlikka, jamiyatning ayollarga nisbatan bo'lgan noto'g'ri qarashlariga qarshi ham yo'naltirilgan. Maryamning Laila va uning farzandlari uchun o'z jonini fido qilishi, bu fidoyilikning naqadar ulug'vor va insoniy qadriyatlarga sazovor ekanligini ko'rsatadi. Bu harakat oddiy bir xaloskorlik emas, balki zulm girdobida qolgan boshqa bir insonning kelajagini ta'minlash yo'lidagi oliyjanob jasoratdir.

Romanning yakunida Laila va uning farzandlarining kelajak haqidagi umidlari, ayniqsa, ta'lim orqali dunyoni o'zgartirish istagi, umidning kuchli timsoliga aylanadi. Ta'lim va bilim orqali ayollar o'zlarining ijtimoiy o'rnini mustahkamlab, jamiyatda faol ishtirok eta oladi.

Lailaning o'qituvchilik faoliyatini davom ettirishi, bu nafaqat shaxsiy maqsad, balki kelgusi avlodlar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratish istagidir. Kobulga qaytishi esa bu umidning yana bir tasdig'i bo'lib, urush va zulmdan jabr ko'rgan shaharda hayotning davom etayotganini, insonning tiklanish kuchi va xalqning barhayotligini anglatadi. Bu qaytish, avvalo, ayolning kuchini, uning oila va jamiyat qurishdagi o'rni va ta'sirini ko'rsatib beradi. "Ming Quyosh Shu'lasini" nafaqat Afg'onistonning yaqin tarixidagi fojialarni aks ettiruvchi asar, balki ayollarning ichki dunyosi, ularning sabot-u bardoshi, o'z baxti va yaqinlari uchun kurashishga tayyor ekanligini ko'rsatuvchi kuchli voqea. Kitob orqali o'quvchi ayollarning jamiyatdagi qiyin ahvolini, ularning boshidan kechirayotgan ruhiy va jismoniy azoblarini teran anglab yetadi. Biroq, asar yakunida qoldirilgan umid nurlari insonni taslim bo'lmaslikka, qiyinchiliklarga qaramay, yaxshilik va sevgini qadrlashga undaydi. Maryam va Laila kabi qahramonlar obrazlari orqali Xolid Husayniy ayol qahramonligining eng oliy ko'rinishlarini, ya'ni mehr, fidoyilik va kelajakka ishonchni namoyon etadi.

Roman Afg'oniston tarixining Sovet istilosi, fuqarolar urushi, Tolibon hokimiyati, AQSH bosqini kabi davrlarini qamrab oladi. Bu tarixiy fon voqealarga kontekst beradi, ammo asarning markazida doimo odamlar — ularning ruhiy holati, ichki iztiroblari turadi. Roman tarixiy voqealarga asoslangan. Har bir siyosiy o'zgarish oddiy odamlarning hayotiga qanday ta'sir qilganiga e'tibor qaratiladi. Sovet davrida boshlanadigan islohotlar, mujohidlar davridagi tartibsizlik, Tolibon rejimi va AQSH bosqinidan so'nggi o'zgarishlar bir-birini almashtirib, faqat xalq uchun iztirob manbai bo'lib qoladi. Ayollar holati esa har bir davrda og'irligicha qoladi [10].

Yozuvchi badiiy tilni juda nozik ishlatadi. Psixologik tasvirlar, ichki monologlar, atrof-muhitga berilgan tasvirlar orqali voqealar chuqurroq aks etadi. Masalan, Maryam qatl qilinishidan oldin o'z hayotini eslaydi — bu sahna juda kuchli dramatik va estetik kuchga ega. She'riy jumlar va o'zbek, fors tilidagi iboralar Afg'on madaniyatiga xos muhit yaratadi. Romanning nomi Hamidulloh Xalilning she'ridagi "Yana ming quyosh shu'lasini to'kiladi bu shaharga..." misralaridan olingan. Bu satr Kobul shahrining go'zalligini tasvirlasa-da, aslida Maryam va Laylodek ayollarning ichki nuriga ishora qiladi.

"Ming quyosh shu'lasini" asari dunyoda 40 dan ortiq tilga tarjima qilingan. U faqat Afg'oniston emas, butun dunyo ayollarining taqdiriga daxldor. Roman adabiyot orqali zulmni fosh qilish, insonparvarlik g'oyasini targ'ib qilishning kuchli namunasi hisoblanadi. Universitetlarda bu asar adabiy tahlil, gender tadqiqotlari, urush va travma adabiyoti doirasida o'rganilmoqda. Shuningdek, u nafaqat san'at asari, balki tarixiy guvohlik sifatida ham baholanadi.

Xolid Husayniyning "Ming quyosh shu'lasini" asari — ayollar taqdirini butun jamiyat darajasida ko'tarib chiqqan, badiiy kuchga ega, ijtimoiy ahamiyati yuqori bo'lgan roman. Asar orqali muallif insoniy qadriyatlar, ayollarning fidoyiligi, urushning dahshati va hayotga bo'lgan ishonch haqida chuqur falsafiy xulosalarni bizga yetkazadi. Maryam va Layloning hayoti — minglab ayollar hayotining timsolidir. Ularning jasorati, mehribonligi va fidoyiligi — eng og'ir sharoitlarda ham insoniylik so'nmasligini isbotlaydi. Aynan shu jihatlar "Ming quyosh shu'lasini"ni zamonaviy adabiyotda alohida o'ringa ko'taradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Хоссейни Х. Тысяча сияющих солнц. – Москва: Иностранка, 2010.
2. Hosseini, Khaled. A Thousand Splendid Suns. – New York: Riverhead Books, 2007.

3. Xusanboyeva, D. "Zamonaviy adabiyotda ayol obrazining talqini." // Adabiyotshunoslik jurnali, 2021, №2, 45–52-betlar.
4. Karimova, S. "Urush adabiyoti va insoniylik motivlari." // Tafakkur, 2022, №1, 30–35-betlar.
5. Mohammadi, F. "Representation of Afghan Women in Contemporary Fiction." // Journal of Middle Eastern Literature, Vol. 35, No. 1, 2020, pp. 75–89.
6. Ahmad, A. "Postcolonial Gender and the Image of the Muslim Woman." // Critical Inquiry, 2009, Vol. 36, No. 2, pp. 245–263.
10. Faulkner, L. "Literary Trauma and Women's Resistance in War Novels." // Women's Studies Quarterly, 2019, Vol. 47, No. 3, pp. 115–132.
11. UNESCO. Education and Women in Afghanistan: A Brief Overview. – Paris: UNESCO Publications, 2020.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).